

**TALABALARINING FALSAFA FANINI O'ZLASHTIRISHIDA SUN'IY
INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Ismoil Saifnazarov,

TDIU professori, falsafa fanlari doktori

saifnazarov@gmail.com

Annotatsiya. Falsafa fani insoniyat tafakkurining rivojlanishi va jamiyat hayotida chuqur iz qoldirgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Falsafaning asosiy maqsadi inson ongi, borliq, tafakkur, bilim, jamiyat va uning taraqqiyoti to'g'risida chuqur va umumiy xulosalarga kelish, katta ilmiy qarashlarni shakllantirishdan iboratdir. Tajriba va ilmiy bilish asosida tashkil topgan zamonaviy dunyoda falsafa hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarga bo'lgan talab tobora ortmoqda. Bu sohada o'quv jarayonlarining zamonaviylashtirilishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarning tatbiq qilinishi yangi talablarni vujudga keltirib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: falsafa ta'limi, sun'iy intellekt, talabalar, o'qitish, axborot texnologiyalari, mustaqil tafakkur, tanqidiy fikr, zamonaviy ta'lim.

Аннотация. Философия является одним из научных направлений, оказавших глубокое влияние на развитие человеческого мышления и жизнь общества. Основная цель философии заключается в формировании глубоких и обобщённых выводов о человеческом сознании, бытии, мышлении, знании, обществе и его развитии, а также в выработке широких научных взглядов. В современном мире, основанном на опыте и научном познании, спрос на философию и другие социально-гуманитарные науки постоянно растёт. Модернизация образовательных процессов в данной области, внедрение передовых педагогических технологий создают новые требования и служат основой для повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: философское образование, искусственный интеллект, студенты, обучение, информационные технологии, самостоятельное мышление, критическое мышление, современное образование.

Annotation. Philosophy is one of the scientific fields that has made a profound impact on the development of human thinking and the life of society. The main purpose of philosophy is to form deep and generalized conclusions about human consciousness, existence, thinking, knowledge, society, and its development, as well as to shape broad scientific perspectives. In the modern world, based on experience and scientific knowledge, the demand for philosophy and other social and humanitarian sciences is steadily increasing. The modernization of educational processes in this field and the implementation of advanced pedagogical technologies are creating new requirements and serving as a foundation for improving the quality and effectiveness of education.

Keywords: philosophical education, artificial intelligence, students, teaching, information technologies, independent thinking, critical thinking, modern education.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi tubdan yangilanib, yangi metodologik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida bilimlarni uzatish jarayoni endilikda faqat an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmay, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida o'qitish samaradorligini oshirish, talabalar bilimini

chuqurlashtirish va ularning mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Falsafa fani esa inson tafakkuri, ong, borliq, bilim va jamiyat rivojini anglashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish sifatida ta‘lim tizimida alohida o‘rin egallaydi. Shu boisdan, ushbu fanni samarali o‘qitish va talabalar tomonidan chuqur o‘zlashtirilishini ta‘minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Falsafaning abstraktligi, murakkab kategoriyalari va keng nazariy qamrovi uni o‘zlashtirish jarayonida maxsus yondashuvlarni talab qiladi.

Bugungi kunda sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta‘lim sohasiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Sun‘iy intellekt asosida yaratilgan platformalar, interaktiv dasturlar va raqamli resurslar o‘quv jarayonini individuallashtirish, talabalarning bilim darajasini monitoring qilish hamda o‘quv materiallarini moslashtirish imkonini bermoqda. Aynan shu jihatlar falsafa fanini o‘qitishda ham yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda intellektual axborot tizimlari, raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari ta‘lim sohasiga kirib kelar ekan, o‘qitishning yangi sifat bosqichlarini shakllantiradi. Sun‘iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari ayniqsa oliy ta‘lim darajasidagi jarayonlarda keng quvvatlanmoqda. Bu jihatdan, falsafa fanini zamonaviy talabalarga samarali o‘zlashtirish va mantiqan o‘rganishda sun‘iy intellekt imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki falsafa o‘zining murakkab nazariyasi, abstraktligi, g‘oyalarning keng ko‘lamda taqdimoti, tarixiy rivoj yo‘li hamda inson tafakkurini shakllantiruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ta‘lim jarayonlarida sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda, talabalar uchun qulay, interaktiv va individual o‘quv muhitini yaratish mumkin. Yangi talqinlarda sun‘iy intellekt yordamida fanning nazariy asoslari, asosiy toifalari, tarixiy maktablari, falsafiy oqimlar haqida keng tafsilotlarni izchil va ravon yetkazish imkoniyati kengaydi. Bu esa talabaning mustaqil ta‘lim olish jarayonini kuchaytiradi, chuqur o‘zlashtirish, mantiqiy mulohaza yuritish, muammoni har tomonlama tahlil qilishga yordam beradi. Dars jarayonlarida sun‘iy intellekt dasturlaridan foydalanish natijasida nazariy tushunchalar, terminlar va atamalarni tez va samarali o‘zlashtirish, yangi bilimlarni qamrab olish bo‘yicha yangi metod va imkoniyatlarni ishlab chiqish mumkin [1].

Bugungi innovatsion pedagogika bilan uyg‘unlashgan holda, sun‘iy intellekt yordamida turli elektron platformalar, interaktiv dasturlar va bilim bazalari yaratilib, talaba uchun keng ma‘lumot olishi mumkin bo‘lgan muhit vujudga keldi. Ular o‘z o‘quv jarayonini raqamlashtirib, ma‘ruza matnlari, qo‘shimcha adabiyotlar, izohli lug‘atlar, audio va video materiallar kabi axborot manbalariga tezkor va to‘liq kirish

imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday imkoniyatlar falsafa fanini zamonaviy talabalar uchun yanada sodda, tushunarli va hissiy jihatdan yaqinlashtirish imkonini beradi. Asosiy e’tibor talabalar fikrlash faoliyatini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritish, muammoni yecha olish, mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilmoqda. Bu maqsadda sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan test sinovlari, nazariy savollarga javob topish, tahlil dasturlaridan foydalanish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. O‘quv jarayonida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni, ya’ni, matnlarni tez tahlil qilish, savol-javoblar o‘tkazish, dissertatsion mavzular yuzasidan fikr almashish imkoniyatlarini ishlab chiqish orqali talaba nafaqat bilim, balki yangi tanqidiy yondashuvni ham egallaydi. Falsafa fanidagi o‘rganiladigan nazariy tushunchalar, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy, epistemologik, ontologik muammolarni anglash uchun ko‘plab izoh va izlanish talab etiladi. Sun’iy intellekt imkoniyatlari bu jarayonlarni osonlashtiradi, ya’ni talaba uchun faqat o‘qituvchidan yoki darslikdan cheklangan axborot emas, tezkor va keng Internet resurslari, zamonaviy ilmiy maqolalar, falsafiy atamalar ma’nolari va ularning zamonaviy talqini ham ochiq bo‘ladi. Shu orqali falsafa ta’limining zamonaviy modullari va mavzularini, falsafa tarixi, fanlararo aloqalari, zamonaviy axloq, madaniyat, jamiyat rivoji kabi sohalarini ham tezkor o‘rganish imkoniyatlari kengayadi. Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt platformalari yordamida falsafa fanidagi murakkab va abstrakt g‘oyalar, gipotezalar, falsafiy yondashuvlarni soddalashgan holda tushuntirish, ulardan mustaqil xulosa chiqarish, uni boshqa sohalar bilan bog‘lay olish ko‘nikmasi shakllanadi. Bu esa muvaffaqiyatli o‘qitish va chuqur o‘zlashtirish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Falsafiy so‘zlashuv, tahlil, konsepsiyalar bilan ishlash, yangi nuqtai nazarlar, fanlararo va zamonaviy ilmiy yo‘nalishlarni o‘zlashtirish uchun ortiqcha vaqt va kuch sarflamasdan mustaqil bilim olishning yangi bosqichini ta’minlaydi [2].

Ma’lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, tarqatilgan axborotlarni ajratish, natijalarni baholash falsafa fanining zamonaviy ta’limidagi eng dolzarb jarayonlaridan biridir. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan individual o‘quv platformalari har bir talabaga o‘z darajasidagi bilim va ko‘nikmasini aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi, bu esa butun fanni o‘zlashtirishda yangi bosqichni ochib beradi. Falsafa fanini zo‘r o‘zlashtirgan talabalar nafaqat nazariy jihatdan bilim oladilar, balki mustaqil intellektual qaror chiqarish, ijtimoiy va axloqiy muammolarni hal qilishga muvaffaq bo‘ladilar. Falsafada tanqidiy tahlil, axloqiy qadriyatlar, madaniyatlararo tafovutlarni anglash, fanlararo bog‘liqlik, tarixiy va zamonaviy jarayonlarni qiyosiy o‘rganish, yangi gipotezalarni ilgari surish va tahlil qilish jarayonlari talab etiladi. Sun’iy intellekt yordamida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarning zamonaviy talqinlari, dunyodagi eng muhim falsafiy g‘oyalar, asosiy yondashuvlar,

mutafakkirlar fikri va ilmiy natijalarni bir joyda to‘plash, maqollarning izoh va tahlilini olish, ekspert xulosalari bilan tanishish imkoniyati mavjud. Ta’lim jarayonining innovatsion modeliga ko‘ra, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan dasturiy vositalar talabalar bilimni doimiy ravishda baholab turadi, bilimlarining mustahkamligini oshirish uchun individual yo‘naltirishlarni beradi va natijalarni tahlil qilish, bilimni mustahkamlash, ilg‘or yondashuvlarning chuqur mohiyatini tushuntirishga imkon beradi. Bu esa falsafa o‘quv jarayonini samarali, yanada oshkora va raqamli asosda tashkil etish imkonini beradi [3].

Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan bilim platformalari o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Murakkab falsafiy atamalarni ochiq ensiklopediyalardan tez tahlil qilib olish, ular ustida fikr yuritish, talabalar tomonidan savol berish va javob olish, yangi fikrlarni ishlab chiqish jarayonini rivojlantirish, zamonaviy ilmiy adabiyotlarni oson qidirish falsafa fanining o‘rganish samaradorligini kuchaytiradi. Shu sababdan, sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilar mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, qaror chiqarish, axloqiy va madaniy qadriyatlarni to‘g‘ri talqin qilish, ilmiy qarashlarni chuqur o‘zlashtirishga erishadi. Motivatsiya va qiziqishni oshirish maqsadida sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga integratsiyasi ayniqsa muhim. Sun’iy intellektga asoslangan o‘quv dasturlari va platformalar barcha talabalar uchun darslarni qiziqarli va interaktiv ko‘rinishga keltiradi, guruhlarda muhokama qilish, dars mazmunini aniq, imlo va grammatik jihatdan to‘g‘ri taqdim etish imkonini yaratadi [4, 5]. Falsafa fanining metodi va mazmuni zamonaviy texnologiyalar orqali kengroq va chuqurroq o‘zlashtiriladi. Ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida yangi model va dasturlarni ishlab chiqish, ma’lumotlarni oson izlab topish, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, talabalar uchun qiyin mavzularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini baholash va rivojlantirishga doimiy imkoniyat ochilib boraveradi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilar zamonaviy falsafiy tafakkur, ilg‘or axloqiy va madaniy qadriyatlarni ham samarali o‘zlashtira oladilar.

Har bir fan, ayniqsa falsafa – insonning mustaqil va tanqidiy tafakkurini rivojlantiradigan, yangi g‘oyalarni ilgari suradigan soha sifatida o‘zining zamonaviy uslublari va metodlaridan tashqari, axborot texnologiyalari bilan ham chuqur aloqada bo‘lishi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shubhasiz, inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi samarali o‘zaro ta’sir, yangi ko‘nikmalar, g‘oyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi [6]. Falsafaning bugungi o‘zgaruvchan va tezkor rivojlanishida bunday integratsiyaga ehtiyoj kattadir. Ta’lim sohasida sun’iy intellektidan foydalanish tajribasi, zamonaviy mutaxassislariga murojaat etish, ilg‘or ta’lim modeli, o‘qitish metodlarini o‘rganish, jamiyatdagi yangi axloqiy qadriyatlarni anglash uchun yuqori darajada ilmiy bilimga ega bo‘lish – bularning barchasi nafaqat o‘qituvchilar, balki talabalar uchun

ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali talaba nafaqat rejalashtirilgan bilim bazasiga ega bo‘ladi, balki mustaqil ravishda qat’iy xulosalar chiqaradi, chuqur mantiqiy tahlilga ega bo‘ladi, o‘z fikrini aniq bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi [7]. Sun’iy intellekt imkoniyatlaridan to‘g‘ri va zamonaviy foydalanish, ayniqsa, falsafiy ta’limdaintegratsiyalash, talabalar bilimni chuqur o‘zlashtirish, mustaqil tafakkur, tanqidiy va ijodiy yondashuv, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi[8]. Fanlararo integratsiya jarayonida zamonaviy texnologiyalardan voz kechmaslik, balki ularni sifatli ta’lim uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, talabalarining falsafa fanini o‘zlashtirishida sun’iy intellektdan foydalanish zamonaviy o‘quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yo‘l orqali o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy tafakkur, individual izlanish, muloqot, ilmiy bilimlarni amaliyotga tadbiiq qilish, axloqiy va madaniy qadriyatlarni to‘liq o‘zlashtirish imkoniyati kengayadi. Sifatli ta’lim uchun zamonaviy texnologiya va inson omilining uyg‘unligi yuqori samaradorlik beradi. Kelajak avlodi uchun bilimdon, tafakkuri chuqur, axloqiy barkamol, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak bilim va madaniyat sohibi yoshlarni tarbiyalashda sun’iy intellektdan foydalanish zamon talabi, istiqbolli strategiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dewey, J. Democracy and Education. An Introduction to the Philosophy of Education. New York. Free Press, 2004 (qayta nashr).
2. Hasanboyeva, O. Pedagogik mahorat va ta’lim texnologiyalari. Toshkent. “Fan va ta’lim”, 2018.
3. Ismoilov, Z. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent. “Ilm Ziyo”, 2019.
4. Jalolov, J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. “O‘qituvchi”, 2015.
5. Prensky, M. Teaching Digital Natives. Partnering for Real Learning. SAGE Publications, 2010.
6. Qodirov, A. Oliy ta’limda innovatsion yondashuvlar. Toshkent. TDPU nashriyoti, 2021.
7. Rasulova, M. Ta’lim jarayonida innovatsion metodlar. Toshkent. “Fan va taraqqiyot”, 2022.
8. Yo‘ldoshev, J. Zamonaviy ta’lim falsafasi va innovatsion texnologiyalar. Toshkent. “Fan va texnologiya”, 2020.